

PEDAGOGIKADA TIZIMLI TAHLIL METODOLOGIYASI

Axrorova U.H., University of business and science
NOTM o'qituvchisi, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogikada tizimli tahlil metodologiyasi va u to'g'risida tahliliy yondashuvlar xususida so'z borgan. Ushbu tadqiqot muammosiga doir soha olimlarning ilmiy izlanishlardagi fikr-mulohazalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: metodologiya, umumiy metodologiya, maxsus-ilmiy metodologiya, xususiy metodologiya, aksiologik (qadriyatlar) yondashuv, madaniy yondashuv, etnopedagogik yondashuv, antropologik yondashuv.

Pedagogik metodologiya tamoyillar, metodlar, bilishning shakllari, tartiblari va pedagogik faoliyatni tashkil etish ta'limotidir. Ushbu tushunchalar ikkita me'zonlarda birlashtiriladi. Bu pedagogik reallikni bilishning kompleks vositalari va pedagogik reallikni amalga oshirish texnologiyalarini qamrab oladi.

Pedagogikada metodologiya tushunchasi bir qancha ma'nolarni kasb etadi:

1. Metodologiya - bubilishningilmiy metod ta'limotlari.
2. Metodologiya – bu qo'llaniladigan metodlar yig'indisi.
3. Metodologiya – bu nazariy-amaliy faoliyat turlari, tizimning tashkil etish imkoniyatlari va prinsiplaridir.

Metodologiya ikki darajasi mavjud: 1- amaliy faoliyat darajasi; 2- ilmiy darajasi. Metodologiya I darajasi– struktura to'g'risidagi ta'limot, mantiqiy tashkil etish, faoliyatning vositalari va metodlari. Metodologiya II darajasi: qurilma tamoyillari to'g'risidagi ta'limot, bilishning shakl va metodlari.

Pedagogikaning umumiy metodologiyasi quyidagi xususiyatlarga asoslanadi:

materialistik dialektika tamoyillari va asosiy talablariga amal qilish;

qarama-qarshiliklar kurash va yakdillik qonuniyatlariga amal qilish, unga ko'ra, odamlarga ta'lim va tarbiya berish jarayonlari murakkab va ziddiyatlilikini hisobga olish;

son ko'rsatgichidan sifat ko'rsatgichiga o'tish, shunga muvofiq pedagogik ta'sirning ortib borishi bilan sifatning o'zgarishiga olib keladi;

inkorni inkor qilish qonuniyati, unga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayonlarida ijobiy fazilatlarini, bilimni, mahoratni shakllantirish orqali odamlarga xos bo'lgan salbiy illatlarning rivojiga to'siq bo'lib xizmat qiladi;

pedagogik jarayonlar rivoji jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va fuqarolarning madaniy, etnik xususiyatlariga bog'liqligi;

pedagogik jarayonlarning psixologik va pedagogik tafakkur darajasiga, jamiyatning ta'lim muassasalari va uning o'quv-tarbiyaviy tashkilotlari faoliyatiga bog'liqligi;

inson ongi va tuyg'ulari birlamchi va uning moddiy olamga bo'lgan munosabatining ikkilamchi falsafiy qarashlarga asoslanishi. Shaxsning kamolotiga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlash.

Pedagogikaning maxsus-ilmiy metodologiyasi quyidagi xususiyatlarga asoslanadi:

insonning ongi va ruhiyati tug'risida muvassal tasavvurga ega bo'lish va pedagogik tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning imkoniyatlari;

jamoaviylik foydali faoliyat jarayonlarida jamiyatda, guruhda, jamoada shaxsni kamol toptirish xususiyatlari;

shaxs tarbiyasi va o'zini-o'zi tarbiya etish uyg'unligi.

Mazkur pedagogik ilmiy metodologiya ma'lum vazifalarni amalga oshirishga qaratiladi. Bu vazifalar metodologik funksiyalar orqali ta'minlanadi.

Pedagogik metodologiyaning ikki darajali aloqadorligi mavjud – bu amaliyot metodologiyasi va fan metodologiyasi:

1. Pedagogik jarayonlarda ilmiy va amaliy metodologiyaning integratsiyasi amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida pedagogik amaliyotchilar uchun sharoit yaratib beradi, pedagogik vazifalar yechimida yangi yo'llar, vositalarni belgilaydi. Amaliyot metodologiyasi pedagogik olimlarni pedagogik reallikka mos keladigan texnologiyalar va yondashuvlarning maqsadlarga muvofiqqligini ta'minlovchi ma'lumotlarni beradi.

2. Amaliyot va fanning o'zaro bog'lanish metodologiyasi ilmiy-amaliy muammolarni hal etishga yordam beradi, ta'limning nazariy metodologik apparatlarini ishlab chiqadi. Masalan, pedagogik sohalarida muammoning dolzarbligini, maqsad va vazifasini, ob'ekti va predmetini, eksperiment ishlanmasini aniqlamasdan turib ilmiy dissertatsiyalar mavzusini shakllantirib bo'lmaydi. Bu yondashuvlar ilmiy apparat metodologiyasini tashkil etadi. Amaliyot va fan o'zaro bog'liqligi maqsad, mohiyat-mazmun, pedagogik faoliyatning innovatsion texnologiyalar samaradorligini ta'minlaydi.

Pedagogikada metodologik yondashuvlardan foydalanishi birinchidan, ilmiy-nazariy muammolarini belgilaydi, ularning iyerarxiyasini belgilaydi, strategiyasini va yechimlarining asosiy vositalarini ishlab chiqish, ikkinchidan, ta'lim amaliyoti texnologik mexanizmlarini modernizatsiyalashni amalga oshirish va tashkil etish, asoslash hamda pedagogik fan va amaliyotni rivoji istiqbolini belgilashga xizmat qiladi.

Pedagogik metodologiyaning asosiy yondashuvlariga quyidagilar kiradi: shaxsiylik, faoliyat, yarim sub'ektlilik, aksiologik, madaniy hamda etnomadaniy. Ta'lim tizimi sub'ektlilik sifatida pedagoglar, ta'lim oluvchilar, ota-onalar, o'quv muassasasi, moddiy bazalar va boshqa omillarni qamrab oladi. Shu jihatdan, pedagogik tizimda ta'lim-tarbiya quyidagi tamoyillardan tashkil topadi. Jumladan;

Shaxsiylik tamoyili: pedagogikada shaxsiylik tamoyili shaxsning ijtimoiy, ijodiy faoliyat mohiyatini ochib berishni ta'kidlaydi. Shaxsni va ijtimoiy tarixiy rivojlanishning maxsuli deb, madaniyat ifoda etuvchi vosita sifatida e'tirof etish bilan belgilanadi. Shaxsiylik tamoyili yondashuvi pedagogik jarayonni amalga oshirishda, konstruksiyasi tuzilganda shaxsiy maqsad sifatida natija va asosiy samaradorlik mezonini deb qarash lozimligini bildiradi.

Faoliyatlilik yondashuvi: shaxsni rivojlantirish omillari va vositalari bilan belgilanadigan faoliyat turi. Mazkur omil inson, jamiyat va tabiatning o'zaro mavjudligini ta'minlovchi metodlarni o'rganadi. Faoliyati insonning faol shakli sifatida o'zini va olamni o'rganish tadqiqotlar sirasiga kiradi, ya'ni ijtimoiy reallik va tabiat bilan muvofiqlik jarayonlarini har tomonlama o'rganishni taqozo qiladi, tub o'zgarishlar qilishi uchun inson o'zining harakatini ideal obrazini, fikr-mazmun faoliyatini o'zgartirishi lozim. Shu jihatdan u inson erkinligini, farovonligini ta'minlovchi, rivojlanish darajasini belgilovchi tafakkur vositasidan foydalanadi. Aynan dunyoni anglashga bo'lgan munosabati inson istaklarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Umuminsoniy madaniyatlar negizida inson o'zini o'zgartirishi bilan olam qiyofasini ham o'zgartirishga erishib boradi.

Yarim sub'ektlilik (dialog) yondashuvi: shaxs ishtirok qilayotgan faoliyat jarayoniga nisbatan inson juda keng qamrovli va murakkab mavjudot. Shaxs o'zining insoniy mazmunini boshqalar bilan qurgan muloqotida topadi. Shu ma'noda shaxs atrof-muhit omillari bilan muloqot qilish natijasi va mahsuli sanaladi. Boshqacha qilib aytganda shaxs munosabatlar tizimi xarakterini belgilovchi, ijtimoiy guruh munosabatlari va o'zaro harakat omili sifatida qaraladi.

Aksiologik (qadriyatlar) yondashuvi: nazariya bilan amaliyot o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni jamiyat, tabiat, madaniyat, inson munosabatlarini anglashga qaratilgan amaliy va nazariy abstrakt darajalarni bog'lovchi mexanizm rolini bajaradi. Pedagogikada aksiologik yondashuv jamiyatda inson hayotidagi qadriyatlarni tan olish va ta'lim-tarbiya pedagogik faoliyatda tadbqiq etish demakdir. Ahamiyatlisi qadriyat sirasiga inson imkoniyatlarini real ta'minlayoladigan shart-sharoitni vujudga chiqarishga qodir. Komil inson g'oyasi bilan bog'liq adolatparvar jamiyat asoslarini ifoda qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning o'zgarishi bilan pedagogik qadriyatlar ham o'zgarib boradi. Pedagogik fan va amaliyot rivoji jarayoni qator o'zgarishlarga duch keladi. Ammo pedagogikada aksiologik yondashuv tamoyillari insonparvar (gumanistik) qadriyat asosida shakllanadi.

Madaniy yondashuv: qadriyatlar tizimi sifatida insonning madaniyat bilan bog'liqligini belgilaydi. Inson qalbida madaniyat unsurlari mujassam. U o'zlashtirgan madaniyati asosida nafaqat uni rivojlantiradi, balki unga yangilik kiritadi. Natijada inson madaniyatning yangi elementlarini ijodkoriga aylanadi. Shu jihatdan madaniyatni qadriyatlar tizimi sifatida o'zlashtirilishi insonning rivojlanishiga, ijodiy shaxsga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Etnopedagogik yondashuv: tarbiya jarayonlarini xalqning milliy qadriyatlari, madaniyati, urf-odat, ko'nikma va an'analarini hisobga olib tashkillashtirish va amalga oshirishni belgilaydi. Milliy madaniyat bola tarbiya olayotgan ixtisoslik muhitiga mazmun kiritadi. Etnopedagogik yondashuvlarni joriy etishda pedagogik jarayonlarga tadbqiq mavjud tashkilot va muassasa xususiyatlarini o'rganish hamda tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishga qaratiladi.

Antropologik yondashuv: inson haqidagi barcha fan ma'lumotlaridan tizimli tarzda foydalanishga asoslanadi, hamda pedagogik jarayonni shakllantirishda amalga oshirishda hisobga olinadi. Agar pedagogika har tomonlama insonni tarbiyalamoqchi ekan, undan chiqdi uni har tomonlama avval bilishi lozim. Pedagogik antropologik yondashuvni asosiy g'oyaviy metodologiyasi ta'limni inson turmushining ramziga aylantirishga qaratiladi. Shu jihatdan antropologik yondashuvni tarix, ma'naviyat, biologiya, fizika, matematika va boshqa fanlarga tadbqiq etishni pedagogikaning gumanistik tamoyilini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonlarda antrotizim bu o'quvchi, pedagog, o'quvchilar va pedagogik jamoasi yoki boshqacha qilib aytganda pedogog bu o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonlarini boshqarishda ma'lum vositalarga ega bo'lgan antrotexnologdir [3].

Pedagogikada tizimli tahlil metodologiya rivojini ko'rib chiqar ekanmiz, maqsad birligi aloqadorligi, modul qurilishi, iyerarxiyasi, funksiyasi rivoji, nomarkazlashuv, noaniqlik kabi tizimli yondashuv tamoyillari o'quvchi, tarbiyalanuvchi va rivojlanlanuvchilar o'rtasidagi maqsadning mohiyati belgilab beruvchi muhit tizim hisoblanadi. Zero, o'quvchilarning faoliyatini va o'qituvchilarning metodologik ijodini va tarbiyaviy tizimning yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib faqat tizimli tahlil turli muammolarning xususiy qismlarini integratsiya qilishga imkon beradi. V.Golubkov fikriga ko'ra ta'lim metodi – "bu shunday metodki, u pedagogikaning umumiy yo'nalishlarida qo'llaniladigan tizimlilikning katta ta'sir ko'rsatuvchi vositasi ekanligidadir" deydi [3].

Xulosa qilib aytganda, pedagogikada metodologik yondashuvlardan foydalanish birinchidan, masalaning ilmiy-nazariy muammosini aniqlashga, iyerarxiyasini belgilashga, yechimlar strategiyasi va asosiy vositalarni ishlab chiqishga qaratiladi. Ikkinchidan, ta'lim amaliyotiningtexnologik modernizatsiya mexanizmlarini amalga

oshirish, qaror toptirish, tashkil etish, shuningdek, pedagogik fan va amaliyot istiqbolini bashorat etishni ro'yobga chiqarish vazifalarini hal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Антонов А.В. Системный анализ. – М.2002.
2. Бендерская Е.Н., Колесников Д.Н., Пахомова В.И. и др. Системный анализ и принятие решений // Учебное пособие. - СПб.: СПб ГТУ, 2001.
3. Голубков В. В. Методика преподавания литературы. – М., 1962.

FACTORS OF CULTURAL DYNAMICS AND TYPES OF CULTURAL CHANGES

**Abdujabbarova M.L. cand. ped. sciences, a professor,
State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan**

New historical approaches to understanding the interpenetration of the history of culture, history of art, history of science, ethics, religion were proposed by the authoritative French School of Annales, which worked since the twenties of the last century. Representatives of this school actively break the tightness of individual forms of spiritual activity, discover the continuous and mutually enriching filiation of ideas in culture, and, thanks to this, recreate a holistic picture of the forms of human mental plasticity in history.

Traditional cultural approaches, which limited their subject matter only to the analysis of events of one series - artistic, scientific, social, political - after the approval of the methodology of the Annales School in science, inevitably became like a "chest for storing facts", doomed themselves to backwardness and provincialism. Thus, the view of art as a cultural phenomenon was established through the difficult vicissitudes of the efforts of art historians and cultural scientists. Over time, a research direction has emerged that reveals the general cultural origins of the processes of artistic creativity, artistic perception and the historical existence of a work of art. In modern art history one can find different understandings of the role played by external (cultural mentality, picture of the world) and internal (artistic tradition, self-movement of art, renewal of language techniques) factors in the historical destinies and mental content of art. At the same time, many times, in an effort to distance itself from vulgar sociological methods of analyzing artistic evolution, the science of art insisted on the decisive role of "intra-artistic mutations" designed to explain the reasons for the emergence of new forms in art.

External and internal factors in the dynamics of individual cultural phenomena: art, education, everyday life, etc. The direction and nature of changes in any cultural forms and phenomena are determined by the dynamics of cultural eras, changes in the cultural and historical situation. A certain type of cultural era corresponds, for example, to an adequate system of art education, which fits into the worldview, cultural and value meanings, and mentality of a given era. The question of the integrity and unity of the cultural era was resolved ambiguously in the humanities. On the one hand, G. Hegel, I. V. Goethe and others noted that the internal unity of the era is ensured by values, the spirit of the times, and the general atmosphere, the imprint of which lies on all areas of culture. H. Sedlmayr believed that on the basis of known art it is possible to reconstruct the religion, philosophy or science corresponding to it. "The spirit of an era is formed under the influence of the culture of the corresponding era as a whole and is a factor mediating the influence of culture on any human activity," emphasizes I. P. Nikitina.